

## SIZ, KREA TIV PEDAGOGMISIZ?"

**Omarova Sevara Rozamatovna**

*Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani MMTB tasarrufidagi 20-umum ta'lim maktabi Boshlang'ich sinfo qituvchisi*

*"Ta'llim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir".*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev*

Bugungi kunning o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?

O'qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim. Shu bilan birga bugungi kun o'qituvchisi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak. Dars davomida o'quvchini ongiga ta'sir eta olish barcha pedagoglarning ham qo'lidan kelavermaydi. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan ustozlar bilan esa hech qanday muammolar yuzaga kelmaydi. Ta'llim –tarbiya faoliyatida pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakli metod va vositalardan unumli foydalana olish zamonaviy ustozning eng samarali qurolidir.

Ijodkorlik (kreativlik) qobilyatlari ega bo'lish ko'nikmasini ham asosiy xislatlardan biridir. Ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish har bir ustoz uchun muhimdir. Ya'ni o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushunishi kerak.

"Sizningcha zamonaviy pedagog qanday hislatlarga ega bo'lishi kerak?", keling, buni ko'rib chiqamiz. Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayonida innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakillanishni ta'minlaydi. Kreativ so'zi inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish degan ma'noni bildiradi. Kreativ bu noodatiy fikr yuritish, yangi g'oyalarni o'ylab topishdir. Kreativ yangilikni ixtiro qilish, an'anaviylikdan voz kechib, odatiy fikr yuritishdan tashqariga chiqishni bildiradi.

Texnologiya rivojlanib borayotganligi zamon talabi bo'lib o'quvchilarning texnologiyalaridan foydalanishi ularga ko'proq narsani tushunish va ko'rish imkonini beradi. Agar hozir ham ta'llim jarayonlari an'anaviy bo'lib qoladigan bo'lsa endi o'quvchilarning diqqatini jamlay olmaymiz va darsga qiziqtira-

olmaymiz. Eski o'qitish usullarida o'quvchilar fikri deyarli so'rалmas, darsda muhokamalar bo'lmas edi. Bular esa o'quvchilarni zeriktirganiga ancha bo'lgan. O'quvchilar mavzularni o'zaro muhokama qilishlari va o'qiganlarini ko'rish mumkin bo'lgan zamонавиy o'qitish usullarini qabul qilish darsda qo'llash faолlikni oshiradi va o'qituvchilarga o'quvchilar diqqatini nazorat qilish imkonini beradi. Kreativ o'qituvchining boshqa o'qituvchilardan farqi;

- Kreativ o'qituvchi dars strukturasinito'g'ri tashkil etib, o'quvchilarda bugungi mavzuga bo'lgan qiziqishnikreativ metodlar orqali oshira oladi.

- Ochiq darslari o'zgachava energiyaga boy tarzda o'tadi. Kuzatuvchio'qituvchilarbu metodlarni qayerdan o'rganganini so'rashi aniq, chunki, o'quvchilarda mavzuni o'rganishgabo'lgan qiziqish yuqori darajaga yetadi. Bu albatta, kuzatuvchilarni hayratga soladi.

- Ota-onalardan samimiyl xatlar kela boshlaydi. Kreativ o'qituvchida passiv va o'zlashtirishi sust o'quvchilarda fanga va bilim olishga intilishni oshiradigan metodlar bor.Buota-onalarda quvonch hamda minnatdorchilik kayfiyati shakllanadi.

- Yuqori natijalar sari qadamlar. Attestatsiya va darsiniommalashtirishda Kreativ o'qituvchilar doim oldinda bo'lishadi.

- Kasbiy va shaxsiy hayotda doimiy rivojlanish. Onlayn kurslar, kitob va maqolalar,o'z fikrlash darajasidan yuqori insonlar bilan muloqot o'qituvchini rivojlantiradi.

"Sizni boshqa o'qituvchilardan farqlaydigan qanday jihatlarinigiz yoki metodlaringiz bor?O'zingizni Kreativ Pedagog deb hisoblaysizmi?".

